

UO‘K(UDC, УДК): 82.09.

## O‘ZBEK VA FRANSUZ XALQ ERTAKLARIDA AYOLLAR OBRAZINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI<sup>3</sup>

**Avezberdiyeva Nafisa Komuljonovna**

*Tayanch doktorant*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*

*Urganch davlat universiteti*

*Urganch, O‘zbekiston*

*E-mail: [nafisa.avezberdiyeva.87@mail.ru](mailto:nafisa.avezberdiyeva.87@mail.ru)*

*ORCID ID: 0009-0005-0163-0113*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o‘zbek va fransuz xalq ertaklarida ayol obrazining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda ayol obrazining shakllanishida muhim rol egallaydigan leksik-semantik birliklar, badiiy tasvir va ifoda vositalari, ramziy obrazlar hamda madaniy kodlarning o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Metodologik jihatdan maqolada semantik-pragmatik va diskursiv tahlil, konseptual modellashirish, shuningdek, syujet va motivlar qiyosi usullaridan kompleks tarzda foydalaniladi. Ertak matnlarida ayol obrazi “ona”, “kelin”, “sehrgar” yoki “pari”, “oqila maslahatgo‘y”, “himoyachi” kabi turli rollarda namoyon bo‘lib, mazkur rollar orqali jamiyatning axloqiy-me‘yoriy qarashlari, genderga oid tasavvurlari va milliy qadriyatlarini til vositasida ifodalanadi. Qiyosiy tahlil natijalari o‘zbek xalq ertaklarida ayol obrazi ko‘proq sabr-toqat, fidoyilik, sadoqat va oilaparvarlik konseptlari bilan bog‘liq holda talqin etilishini, fransuz xalq ertaklarida esa ayol obrazi mustaqil qaror qabul qiluvchi, faol tanlovga ega va individual aql-zakovat timsoli sifatida aks etishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari folklorshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va gender tilshunosligi sohalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni boyitadi hamda qiyosiy tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

### KALIT SO‘ZLAR

Lingvomadaniyatshunoslik, ayol obrazi, konsept, baholash birliklari, nominatsiya, qiyosiy-tahliliy yondashuv, madaniy kod, empirik material, narrativ model, diskursiv faollik.

**Received:** February 23, 2026

**Accepted:** February 25, 2026

**Available online:** May 10, 2026

<sup>3</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Avezberdiyeva N. O‘zbek va fransuz xalq ertaklarida ayollar obrazining lingvomadaniy xususiyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 31-42.

**LINGUOCULTURAL FEATURES OF FEMALE CHARACTERS IN  
UZBEK AND FRENCH FOLK TALES****Avezberdiyeva Nafisa Komuljonovna***PhD student**Urgench State University named after**Abu Raykhan Beruni**Urgench, Uzbekistan**E-mail: [nafisa.avezberdiyeva.87@mail.ru](mailto:nafisa.avezberdiyeva.87@mail.ru)**ORCID ID: 0009-0005-0163-0113***ABSTRACT**

This article offers a comparative linguo-cultural analysis of female representations in Uzbek and French folk tales. The study examines the linguistic means through which female characters are constructed, highlighting their connection to national values, cultural codes, and socially embedded gender perceptions. Methodologically, the research employs semantic-pragmatic and discourse analysis, conceptual modeling, as well as a comparative approach to narrative motifs and plot structures. Within folk narratives, female figures appear in diverse roles such as “mother”, “bride”, “sorceress” or “fairy,” “wise advisor,” and “moral guardian”. These roles function as carriers of culturally specific meanings and reflect collective ideals and normative expectations embedded in language. The comparative findings reveal that in Uzbek folk tales, female characters are predominantly associated with concepts of patience, self-sacrifice, and devotion to family values, whereas in French folk tales they are more frequently portrayed as embodiments of autonomy, rational judgment, and individual agency. By uncovering both convergences and divergences in the linguo-cultural representation of women, the article contributes to ongoing research in linguo-cultural studies, folklore studies, and gender linguistics. The results may also serve as a theoretical basis for further interdisciplinary research and for the interpretation of female imagery in traditional narrative discourse.

**KEY WORDS**

Linguoculturology, female image, concept, evaluative units, nomination, comparative-analytical approach, cultural code, empirical material, narrative model, discursive activity.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКИХ  
ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ****Авезбердиева Нафиса Комулжоновна***Докторант**Ургенчский государственный университет**имени Абу Райхана Беруни,**Ургенч, Узбекистан**E-mail: [nafisa.avezberdiyeva.87@mail.ru](mailto:nafisa.avezberdiyeva.87@mail.ru)**ORCID ID: 0009-0005-0163-0113***АННОТАЦИЯ**

Данная статья посвящена сравнительно-лингвокультурному анализу образа женщины в узбекских и французских народных сказках. В исследовании рассматриваются языковые средства репрезентации женского образа, а также их связь с национально-культурными ценностями и социокультурными установками общества. В качестве основных методологических подходов используются семантико-прагматический и дискурсивный анализ, концептуальное моделирование, а также сопоставление сюжетов и мотивов. В сказочных текстах образ женщины реализуется в различных ролях, таких как «мать», «невеста», «волшебница» или «фея», «мудрая советчица», «хранительница нравственных норм». Каждая из этих ролей отражает специфические культурные коды и ценностные ориентиры, характерные для соответствующей лингвокультуры. Результаты сравнительного анализа показывают, что в узбекских народных сказках женский образ преимущественно ассоциируется с концептами терпения, самоотверженности и преданности семье, тогда как во французских сказках он чаще представлен как символ самостоятельности, активного выбора и индивидуальной смекалки. Полученные выводы вносят вклад в развитие лингвокультурологии, фольклористики и гендерной лингвистики и могут быть использованы в дальнейших научных исследованиях и образовательной практике.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Лингвокультурология, женский образ, концепт, оценочные единицы, номинация, сравнительно-аналитический подход, культурный код, эмпирический материал, нарративная модель, дискурсивная активность

## KIRISH

Jahon folklorshunosligida xalq ertagi til va madaniyatning bir-birini to'ldiruvchi tizimlari kesishadigan maydon sifatida lingvomadaniy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi, shuningdek barcha xalq ertak matnlari nafaqat syujet va obrazlar makoni, balki jamoa ongida barqarorlashgan qadriyatlar, norma va ijtimoiy rollarning til orqali qanday shakllanishini kuzatish imkonini berishi bilan birga ayol obrazi ertaklarda madaniy ideal va ijtimoiy tasavvurlarni jamlaydigan, shu bilan birga, baholash, ta'riflash, nomlash va pragmatik ta'sir vositalari eng faol ishlatiladigan semantik markazlardan biridir.

Jumladan, o'zbek xalq ertaklarida ayol obrazi ko'pincha oila tizimi, qarindoshlik terminlari, mehnat va uy-ro'zg'or semantikasi bilan zich bog'langan holda ko'rinsa, fransuz xalq ertaklarida esa saroy-makon, nafislik, ijtimoiy status va sehrli yordam motivlari bilan qo'shib, boshqa turdagi nomlash va baholash tamoyillarini yuzaga chiqaradi. Biroq ikki millat an'anasida ham ayol obrazining tilga ko'chishi "ona", "qiz", "kelin", "malika", "pari", "kampir", "jodugar" kabi rollar orqali stereotipik shakllarda takrorlanadi va ana shu takroriylik lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlash uchun qulay empirik material hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlarda ertak poetikasi, motivlar tizimi va personaj tipologiyasi keng yoritilgan bo'lsa-da, bugungi kun ilmiy tadqiqotlarida ayol obrazining aynan lingvomadaniy parametrlarini ikki qardosh bo'lmagan tillar va madaniyat doirasida qiyoslab, nomlash modellari, baholovchi birliklar, metaforik tasvir, pragmatik formulalar va diskursiv rollar kesimida tizimli tavsiflash masalasi yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Folklorshunoslik sohasi asosan syujet evolyutsiyasi va motivlar tarqalishiga urg'u bersa, qiyosiy lingvistik tadqiqotlar esa, ertak tili umumiy tasviriy vositalar darajasida qolib ketadi. Shu bois ushbu maqolada qiyoslanayotgan tillarda ayol obrazining "madaniy ma'no tashuvchisi" sifatida qanday konseptuallashtirilishi va bu konseptualizatsiya tilning konkret birliklari, matn formulalari hamda baholash tamoyillari orqali qanday ifodalanishini muammo sifatida o'rganishdan iborat. Tadqiqotning maqsadi o'zbek va fransuz xalq ertaklarida ayol obrazining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning umumiy tipologik jihatlari va milliy-spesifik farqlarini konseptual va diskursiv sathlarda asoslashdir.

Mazkur maqsadga erishish uchun ayol obrazining nomlash tizimini tavsiflash, matnda ayol obraziga nisbatan qo'llangan baholovchi lug'aviy birliklarni aniqlash, ularni semantik maydonlar asosida guruhlash hamda ularning lingvomadaniy qadriyat tizimidagi funksiyasini tahlil qilish, ayol obraziga bog'langan rollar va kommunikativ funksiyalarni diskurs darajasida tahlil qilish, shuningdek, ikki millat an'anasidagi metaforik va formulali ifodalar farqini qiyoslash vazifalari belgilandi.

## TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot metodologiyasi lingvomadaniy tahlilning konseptual, semantik-pragmatik va diskursiv yoʻnalishlarini integratsiyalashga asoslandi. Avvalo, “ayol” konsepti ertak matnida bevosita nomlash birliklari, qarindoshlik terminlari, ijtimoiy status bildiruvchi nomlar va kasb-hunar yoki rol nomlari orqali qanday namoyon boʻlishini aniqlash uchun konseptual modellashtirish qoʻllandi; bu yondashuv konseptning yadrosi va periferiyasini ajratish, uning baholovchi komponentlarini koʻrsatish hamda turli madaniyatlarda konsept atrofida toʻplangan semantik maydonlarni qiyoslash imkonini beradi. Keyingi bosqichda semantik-pragmatik tahlil yordamida ayol obraziga biriktirilgan sifatlash, taʼriflash va baholash vositalari, shuningdek, buyruq, maslahat, iltimos, taqiqlash, duo yoki qargʻish kabi nutq aktlari bilan bogʻliq pragmatik yuklamalar koʻrib chiqildi; bu ertak matnida ayolning nafaqat “kim”ligi, balki “qanday taʼsir qilishi” va “qaysi kommunikativ rejimda” namoyon boʻlishini ajratishga xizmat qiladi (Arutyunova D., 1999, 896). Diskursiv tahlil esa ayol obrazining syujet ichidagi faollik darajasi, yaʼni voqeani harakatga keltiruvchi yoki toʻxtatuvchi, sinov beruvchi yoki yordam beruvchi, murosaga keltiruvchi yoki jazolovchi rollarini matnning izchil segmentlari boʻyicha tavsiflashga yoʻnaltirildi; bunda ertak diskursining tipik formulalari, takrorlanuvchi strukturalar va anʼanaviy baholash ifodalari eʼtiborga olindi (Vinogradov V., 1959, 656).

Tadqiqot lingvomadaniyatshunoslikning til va madaniyat oʻrtasidagi kodlash-dekodlash munosabatlarini yorituvchi yondashuvlariga tayangan holda, ertak matnini ijtimoiy tajriba va qadriyatlarining “narrativ modeli” (“hikoyaviy yoki bayoniy roviylik modeli”) sifatida koʻradi (Maslova A., 2001, 208).

Empirik material sifatida oʻzbek xalq ertaklari toʻplamlaridagi keng tarqalgan syujet turlari hamda fransuz anʼanasida adabiy meʼyorlar asosida shakllangan ertak matnlari tanlandi; tanlovda ayol personajlar ishtirok etadigan, ularning axloqiy baholanishi yoki syujetdagi funksiyasi yaqqol berilgan matnlar ustuvor qoʻyildi. Qiyosiy tahlilda ikki korpus oʻrtasida bevosita “syujet tengligi”ni majburiy shart sifatida qabul qilmasdan, “funktional ekvivalentlik” tamoyili qoʻllandi, yaʼni oʻzbek va fransuz ertaklarida bir xil ijtimoiy rolni bajarayotgan ayol obrazlari qiyoslandi. Shuningdek, nomlash va baholash birliklari “matn ichidagi kontekst”da tahlil qilinib, ularning lugʻaviy maʼnosidan tashqari, konnotativ va madaniy yuklamasi ham hisobga olindi; bu yondashuv lingvomadaniy tahlilning asosiy talabi sifatida madaniy maʼno til birliklarida qanday “siqilgan” holatda berilishini ochishga yordam beradi (Lakoff G., Johnson M., 2003, 256) Natijalarni umumlashtirishda tipologik tasniflash va interpretatsiyani chegaralash tamoyiliga rioya qilindi:

“Natijalar” bo‘limida tizimlashtirilgan kuzatishlar berilib, ular bo‘yicha kengroq talqin “Munozara” bo‘limiga qoldirildi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Qiyosiy tahlil natijalari o‘zbek va fransuz ertaklarida ayol obrazining lingvomadaniy kodlanishi bir tomondan umumiy arxetipik rollarga tayansa-da, ikkinchi tomondan nomlash, baholash va diskursiv faollikni ifodalash vositalarida sezilarli farqlarni namoyon qilishini ko‘rsatadi. Birinchi natija ayol obrazining nomlash tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek ertaklarida qarindoshlik va oilaviy rol nomlari yuqori chastotada markaziy nomlash vazifasini bajaradi. “Ona”, “kelin”, “qiz”, “kampir”, “xotin” kabi nomlar nafaqat biologik yoki ijtimoiy mavqeni bildiradi, balki qahramonning axloqiy bahosini ham oldindan ishora qiladi: “ona” ko‘pincha asrovchi va yo‘l ko‘rsatuvchi, “kampir” esa ikki qutbli, ya’ni ham donishmand maslahatgo‘y, ham makkor sinovchi tipida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagidagi sehrgar kampir obrazi ikki qutbli obraz hisoblanadi. Muloyim xulq-atvori, mehnatkashligi uchun Zumradni qadrlab, qimmatbaho sovg‘alar bilan siylaydi, qo‘pol va dangasaligi uchun Qimmatni jazolaydi. Fransuz ertaklarida esa, nomlash tizimida ijtimoiy status va estetik qarashlar bilan bog‘liq nomlar kuchliroq, “la reine”, “la princesse”, “la marraine”, “la fée”, “la sorcière”, “l’orgresse” kabi birliklar ayol obrazining makondagi o‘rnini va syujetdagi funksiyasini bir vaqtning o‘zida belgilaydi. Bu farq lingvomadaniy jihatdan shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq ertaklari matnida ayolning identifikatsiyasi ya’ni, uning shaxsiyati va roli ko‘proq oiladagi o‘rniga, fransuz ertaklari matnida esa status va institutsional makonga tayanadi. Sharl Perroning “Kuloyim”, “Uyqudagi malika”, “Xachir po‘stin”, “Parilar” ertaklaridagi asosiy syujet harakatlari qirolik va saroy atrofida sodir bo‘ladi.

Ikkinchi natija baholash birliklarining leksik-semantik qatlamida kuzatiladi. O‘zbek xalq ertaklarida ayol obraziga bog‘langan baholash ko‘pincha mehnatsevarlik, sabr, ibo-hayo, sadoqat va tejamkorlik semantikasi orqali beriladi; bunday baholashlar sifatlar, ta’riflovchi birikmalar hamda qiyosiy metaforalar bilan mustahkamlanadi va ko‘pincha “yaxshi kelin”, “oqila ayol”, “mehribon ona” kabi birikmalarni yuzaga keltiradi. Fransuz ertaklarida baholash vositalari ko‘proq tashqi ko‘rinish, nafislik, muomala madaniyati va “munosiblik” kategoriyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ayolning “belle”, “sage”, “bonne”, “douce”, “pure”, “gentille”, “honnete” kabi sifatlar orqali mukammallashtirilishi, yoki aksincha “méchante”, “jalouse”, “cruelle”, “froide”, “envieuse” kabi birliklar bilan salbiylashtirilishi ko‘zga tashlanadi. Har ikki an’anada ham baholashlar binar oppozitsiya asosida quriladi, biroq oppozitsiyaning semantik mazmunini harakatga keltiruvchi markaziy qarama-qarshilik chizig‘i turlicha: o‘zbek ertaklarida “mehnat”, “odob-axloq” chizig‘i

kuchliroq, fransuz ertaklarida esa “nafislik-status” chizig‘i faolroq. Misol uchun o‘zbek xalq ertaklari namunalridan biri bo‘lgan “Podachining qizi” ertagida o‘gay ona tomonidan buyurilgan yumushlar qanchalik og‘ir va imkonsiz bo‘lishiga qaramasdan, qiz ularni itaotkorlik bilan so‘zsiz bajarib, o‘zining xushhulqi va odobi tufayli ertak nihoyasida baxt-saodatga erishadi. Fransuz xalq ertaklarida ayol obrazini baholash ko‘pincha “nafislik–status” semantik chizig‘i asosida quriladi. Bunday syujetlarda qahramonning ijtimoiy yuksalishi avvalo uning estetik mukammalligi, latofati va aristokratik muhitga mosligi bilan belgilanadi. Ayol obrazining estetik va ijtimoiy parametrlar orqali baholanishi masalasi qator g‘arb tadqiqotchilari tomonidan qayd etilgan. Jumladan, Jack Zipes XVII asr fransuz salon madaniyati kontekstida Charl Perro ertaklari aristokratik did va saroy etiketi mahsuli ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “Cendrillon” ertagi syujetida qahramonning ijtimoiy yuksalishi uning muloyimligi, go‘zalligi va nafis xulqi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu fazilatlar saroy madaniy normalariga mosligini ifodalaydi (Zipes, J., 1989; 1993). Marina Warner esa ayol go‘zalligini ertak diskursida ramziy kapital shakli sifatida talqin qiladi. U go‘zallik va qirollik maqomining o‘zaro bog‘liqligini ayol obrazining madaniy tan olinish tizimi sifatida izohlaydi (Warner M., 1994, 279). Warner talqinida estetik ustunlik - ijtimoiy tan olinadigan kuch shaklidir. Marie-Louise von Franz ertaklarni K. G. Jungning (Jung K., 1964, 156) analitik psixologiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Uning talqinida malika va favqulodda go‘zal qahramon obrazlari arxetipik mukammallik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda qirollik maqomi oddiy ijtimoiy daraja emas, balki psixikaning ichki markaziyliги va yaxlitligini ifodalovchi ramziy belgi sifatida talqin etiladi. Von Franzning fikriga ko‘ra, bunday obrazlar “tanlanganlik” motivi bilan uyg‘un holda tasvirlanib, inson ruhiyatidagi yuksak salohiyat va ichki yetuklikni anglatadi (von Franz L., 1996, 290).

Lingvomadaniy nuqtayi nazardan esa mazkur ramziy-psixologik talqin ijtimoiy-semantik qatlam bilan kesishadi. Ya’ni qirollik va go‘zallik timsollari nafaqat arxetipik mazmunni, balki madaniy kodlangan ijtimoiy mavqeni ham ifodalaydi. Natijada fransuz ertaklarida estetik mukammallik va yuqori maqom o‘zaro uyg‘unlashib, ayol obrazining baholanishida “nafislik-status” semantik chizig‘ining shakllanishiga zamin yaratadi. Estetik mukammallik va aristokratik muhitga moslik qahramonning ijtimoiy yuksalishini asoslovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Cendrillon”, “La Belle au bois dormant” va “Peau d’Âne” ertaklarida bosh qahramonning qadri uning go‘zalligi, nafis xulqi va saroy etiketi bilan uyg‘unligi orqali o‘z tasdig‘ini topadi. Bu yerda estetik ustunlik ijtimoiy maqom bilan chambarchas bog‘lanib, ayol obrazining qadrini belgilovchi asosiy mezonga aylanadi.

Uchinchi natija ayol obrazining diskursiv faolligi esa syujetni yoritishdagi faol yoki passiv mavqei bilan bogʻliq. Oʻzbek ertaklarida ayol obrazlari koʻpincha syujetning axloqiy-maslahat diskursini hosil qiladi: ona yoki kampir qahramonni yoʻlga soladi, sinaydi, taqiqlaydi yoki ogohlantiradi, natijada qahramonning toʻgʻri tanlovi “ona soʻzi”ning pragmatik kuchi bilan asoslanadi. “Sarishta va Farishta” ertagida “Qizaloqning yodiga onasi aytgan bir gap tushibdi. “Supurib-sidirilgan uyga Farishtalar keladi”. Darvoqe, qizaloq umrida bir marta boʻlsa hamki Farishtani koʻrmagan ekan. Shu tobda odamlarsiz huvullab qolgan uyiga Farishtalar kelishini juda ham istabdi va qoʻliga supurgini olib hovlini supura boshlabdi. Toʻsatdan Farishta paydo boʻlibdi. Qizaloq Farishta bilan boʻlgan gʻaroyib uchrashuvni yana qaytarilishini istab, har tong qoʻliga supurgi tutib, uy va hovlilami sarishtalashni kanda qilmas ekan” (Ertaklar olami-2, 2017, 24). Fransuz ertaklarida esa, ayol obrazining faolligi koʻp hollarda “transformatsion”, yaʼni oʻzgaruvchan xarakterga ega boʻlib, “pari-fée” yoki “marraine” qahramonning ijtimoiy taqdirini oʻzgartiruvchi vositachiga aylanadi; bunda nutq aktlari koʻproq vaʼda, shart, marhamat, jazolash kabi harakatlarni amalga oshiruvchi nutqiy birliklar bilan ifodalanadi. “Cendrillon” ertagida pari sehr yordamida Kuloyimga yordam berib, uni oddiy qizdan malikaga aylantiradi. Shunday qilib, oʻzbek matnida ayolning faolligi koʻproq normativ-axloqiy boshqaruv, fransuz matnida esa status oʻzgarishi va magik meʼyorlashtirish tizimi bilan bogʻlanadi.

Toʻrtinchi natija metaforik tasvir va formulali iboralar yaʼni anʼanaviy frazeologik birliklar sathida aniqlandi. Oʻzbek ertaklarida ayolga nisbatan metaforalar koʻpincha uy, oʻchoq, oy, baraka kabi konseptual maydonlar bilan aloqador boʻlib, ayolning mavjudligi “tartib va barqarorlik” ramziga aylantiriladi. Fransuz ertaklarida esa, ayol obrazi atrofida kiyim, poyabzal, bezak, oynaga qarash, saroy atributlari kabi obrazlar yigʻiladi va bu ayolning ijtimoiy koʻrinishi hamda tan olinish jarayonini tilga koʻchiradi. Masalan, “La Belle au bois dormant” ertagida malika obrazining asosiy belgisi-saroy, marosim, qirollik maqomi bilan bogʻliq atributlardir. Formulalilik ham har ikki anʼanada mavjud boʻlsa-da, oʻzbek ertaklarida duo va ogohlantirishga yaqin, fransuz ertaklarida esa marhamat va qoidaga boʻysunishga oid standart ifodalarda ustunlik qiladi. Natijada ayol obrazining lingvomadaniy profili oʻzbek matnida “oila markazi” va “axloqiy nazorat”, fransuz matnida “status vositachisi” va “transformatsiya jarayonini tezlashtiruvchi omil” sifatida tizimlashadi.

Beshinchi natija antagonistik ayol obrazlarining til vositalari orqali ifodalanishida namoyon boʻladi. Oʻzbek xalq ertaklarida salbiy ayol obrazi koʻpincha “makkor kampir” yoki “hasadgoʻy”, “oʻgay ona” tipida, ogʻzaki taʼsir, fitna va aldov strategiyalari bilan beriladi; bunday obrazlarda baholovchi leksika

bilan birga, bevosita nutqning manipulyativ pragmatikasi kuchayadi. Misol uchun, “Sehrli oltin taroq” ertagida “Eri safarga ketgach, o‘gay ona yolg‘ondan o‘zini kasalga solib, qosh qorayib kech tushganda Anorani tabibni chaqirib kel deb qo‘shni qishloqqa jo‘natibdi. O‘gay onasidan qo‘rqan qizcha uning so‘zini qaytarolmabdi”. (Ertaklar olami-2, 2017, 22).

Fransuz ertaklarida “*méchante belle-mère*” yoki “*sorcière*” tipidagi obrazlar ko‘proq ierarxik bosim, taqiqlash va jazolash diskursi orqali namoyon bo‘ladi, bunda “qonun”ga o‘xshash shartlar va qat’iy buyruqlar ko‘p uchraydi. Shunday qilib, salbiylikning til birliklari orqali ifodalanishi o‘zbek an’anasida ko‘proq yashirin manipulyatsiya, fransuz an’anasida esa ochiq ierarxik zo‘ravonliksiz, ammo qat’iy nazorat tiliga yaqin shakllarda tizimlashadi.

### MUNOZARA

Olingan natijalar ertak matnida ayol obrazining lingvomadaniy xususiyatlari universal arxetiplar bilan milliy diskurs amaliyotlari o‘rtasida shakllanishini ko‘rsatadi va bu holat lingvomadaniyatshunoslikning “madaniy ma’no til birliklarida kodlanadi” degan asosiy tezisini qiyosiy materialda mustahkamlaydi. Avvalo, nomlash tizimidagi farqlarni konsept va diskurs munosabati nuqtayi nazaridan talqin qilganda, o‘zbek ertaklarida qarindoshlik terminlarining markaziyliigi jamiyatning ijtimoiy tajribani oilaviy munosabatlar orqali tasniflashga moyilligini bildiradi. Bu holat konseptual yondashuvlarda madaniyatning “yaqin” ijtimoiy doiralar orqali kodlanishi bilan izohlanadi: til madaniy modelni aynan oila semantikasi bilan barqarorlashtiradi. Fransuz ertaklarida status nomlarining kuchliligi esa ayol obrazining legitimatsiyasi ko‘proq ijtimoiy institutlar va tashqi tan olinish tamoyillariga tayanishini anglatadi; buni Propp funksiyalari doirasidagi “yordamchi” va “donor” rollarining fransuz matnida ko‘pincha status yoki sehrli vakolat bilan birikishi orqali ham asoslash mumkin (Propp Ya., 1928, 152). Bunda muhim jihat shundaki, nomlash nafaqat “nom berish”, balki axloqiy va pragmatik kutilmalarni oldindan belgilovchi diskurs signalidir, ya’ni “ona” yoki “malika” nomi matnning keyingi baholash yo‘nalishini ham tayyorlaydi.

Baholash birliklari bo‘yicha aniqlangan “mehnat-odob” va “nafislik-status” o‘qlari til va madaniyatning qadriyatlar ierarxiyasini turlicha joylashtirishini ko‘rsatadi. V. V. Vinogradov baholash va uslubiy qatlamlarning matn semantikasiga faol ta’sirini ko‘rsatgan yondashuvlarida badiiy nutqda baholash komponenti ko‘pincha yashirin norma tashuvchiga aylanishini ta’kidlaydi (Vinogradov V., 1959, 656). O‘zbek ertaklarida “oqila”, “mehribon”, “sabrli” kabi baholar madaniy normaning ichki, uy-ichki me’yorlar bilan bog‘lanishini kuchaytiradi; fransuz ertaklarida esa “belle” kabi sifatlar nafaqat estetika, balki ijtimoiy qabul qilinishning sharti sifatida ishlaydi. Shu nuqtada Bartning narrativ va mif haqidagi g‘oyalari

muhim diskursiv talqin maydonini yaratadi: mifologik matnlarda tashqi belgi madaniy ma'noni "tabiiy" ko'rsatib qo'yadi, ya'ni go'zallik "tabiiy ustunlik" sifatida ko'rinadi (Barthes R., 1957, 247). Biroq ushbu maqola doirasida natijalar shuni ko'rsatadiki, go'zallikning o'zi emas, balki go'zallik atrofida qurilgan nominatsiya va baholash tizimi status o'zgarishi syujetini barqarorlashtiradi.

Diskursiv faollik masalasida o'zbek ertaklaridagi ayol obrazining normativ-axloqiy boshqaruvga yaqinligi Arutyunovanning diskurs va pragmatika doirasidagi qarashlari bilan uyg'un talqin qilinadi: nutq aktlari faqat ma'no uzatmaydi, balki ijtimoiy munosabatlarni oydinlashtiradi, kimning so'zi o'tishi va qaysi maslahatning majburiyiligi matn ichida pragmatik ierarxiya yaratadi (Arutyunova, D., 1999, 896). O'zbek ertaklarida "ona so'zi" yoki "kampirning ogohlantirishi" ko'pincha syujetning burilish nuqtasiga aylanadi, bu esa ayolning faolligini bevosita harakatdan ko'ra nutqning normativ kuchi orqali namoyon etadi. Fransuz ertaklarida pari yoki marraine obrazining transformatsion faolligi esa Propp ta'riflagan "sehrli vosita" funksiyasi bilan uyg'un, biroq lingvomadaniy jihatdan u "vakolatli marhamat" diskursi orqali kodlanadi: ayol yordam beradi, ammo bu yordam shartli va me'yoriy qoidalarga bog'langan bo'ladi (Propp V., 1928, 152). Demak, faollikning o'zi ikki an'anada turlicha ijtimoiy modellarni aks ettiradi: birida ichki me'yoriy nazorat, ikkinchisida tan olinishni ta'minlovchi vositachilik.

Metaforik birliklar farqi ham lingvomadaniy jihatdan izchil tushuntiriladi. Lakoff va Jonson metafora kundalik tafakkurning konseptual tizimi ekanini ko'rsatib, metafora madaniy tajribani tartiblaydigan "fikrlash modeli" ekanini asoslagan (Lakoff G., Johnson M., 2003, 256). O'zbek ertaklarida ayolning uy, o'choq, baraka bilan bog'lanishi ayol obrazini "tashkiliy markaz" konsepti orqali tushunishga olib keladi, bu esa baholashning mehnat-odob o'qi bilan hamohang. Fransuz ertaklarida kiyim, poyabzal, bezak kabi birliklarning ustunligi ayolning ijtimoiy ko'rinishi va tan olinishi "belgilar" orqali vositalanishini ko'rsatadi; bu belgilar matnda status o'zgarishining til ekvivalentlariga aylanadi. Karimov va Yo'ldoshevlarning badiiy matn hamda folklor tilini tahlil qilishga oid qarashlari doirasida ham obrazning lingvopoetik qurilishi ko'pincha milliy tasavvurlar bilan uzviy bog'lanishi qayd etiladi (Yo'ldoshev B., 2008, 192), (Karimov S., 2011, 176). Ushbu maqola natijalari bu fikrni qiyosiy materialda kengaytiradi: lingvopoetik qurilish nafaqat milliy, balki madaniyatlararo farqlarni ham aniq ko'rsatadigan diagnostik vositadir.

Salbiy ayol obrazlarining qurilishida aniqlangan "yashirin manipulyatsiya" va "ierarxik nazorat" yo'nalishlari ertaklarda axloqiy muvozanatni tiklash tizimlarining turlicha diskursivlashuvini ko'rsatadi. Bu yerda muhim ilmiy xulosa shundan iboratki, salbiy obrazlar ham madaniy normani mustahkamlaydi: ular "qanday

bo‘lmaslik kerak” degan chegarani til orqali chizadi. Vinogradovning badiiy nutqdagi ekspressiv vositalar funksiyasi haqidagi yondashuvlari salbiy baholashning nafaqat emotsional, balki ijtimoiy tartibni kodlovchi xususiyatini tushuntirishga yordam beradi (Vinogradov V., 1959, 656). Natijada ayol obrazining lingvomadaniy tipologiyasi faqat ideal modellardan iborat emas, balki taqiqlangan yoki qoralanadigan xulq modellarini ham o‘z ichiga olgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

### **XULOSA**

Maqolada o‘zbek va fransuz xalq ertaklarida ayol obrazining lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ayol konseptining matnda nomlash, baholash, metaforik tasvir va diskursiv faollik orqali tizimli tarzda kodlanishi asoslandi. O‘zbek ertaklarida ayol obrazi ko‘proq qarindoshlik va oila markaziga yo‘naltirilgan nomlar orqali identifikatsiyalanib, mehnatsevarlik va odobga tayangan baholashlar bilan mustahkamlanishi, shuningdek, axloqiy-normativ nutq aktlari orqali syujetni boshqarishi aniqlashtirildi. Fransuz ertaklarida esa ayol obrazi status va institutsional makon bilan bog‘liq nomlashlar orqali berilib, nafislik va tan olinish bilan bog‘langan baholashlar hamda transformatsion vositachilik agentligi bilan ajralib turishi ko‘rsatildi. Tadqiqotning ilmiy hissasi shundaki, ayol obrazining universallashtirgan rollari ortida turli madaniy qiymatlar o‘qi yotishi, bu o‘qlar esa til birliklarining tanlanishi va til birliklarida aniq aks etishi konseptual-diskursiv asosda yoritildi. Amaliy jihatdan natijalar qiyosiy folklor lingvistikasi, lingvomadaniyatshunoslik va tarjima amaliyotida obrazlarni adekvat talqin qilish uchun metodik tayanch bo‘la oladi. Kelgusida tadqiqotni kengroq korpus asosida, dialektal variantlar va zamonaviy qayta hikoyalarda ayol obrazining o‘zgarish dinamikasini ham qamrab olgan holda davom ettirish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
2. Barthes R. Mythologies. – Paris: Éditions du Seuil, 1957. – 247 p.
3. Ertaklar olami–2. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2017. – 224 b.
4. Jung C. G. Les archétypes et l’inconscient collectif. – Paris: Buchet/Chastel, 1964. – 320 p.
5. Karimov S. Folklor tili va badiiy tafakkur masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 240 b.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
7. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

8. Пропп В. Я. Морфология сказки. – Л.: Academia, 1928. – 152 с.
9. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – 654 с.
10. von Franz M.-L. L'interprétation des contes de fées. – Paris: Albin Michel, 1992. – 238 p.
11. Warner M. From the Beast to the Blonde: On Fairy Tales and Their Tellers. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 1994. – 457 p.
12. Yo'ldoshev B. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.
13. Zipes J. Don't Bet on the Prince: Contemporary Feminist Fairy Tales in North America and England. – New York: Routledge, 1989. – 368 p.
14. Zipes J. The Trials and Tribulations of Little Red Riding Hood. – New York: Routledge, 1993. – 398 p.

#### REFERENCE:

1. Arutyunova, N. D. (1999). Language and the human world. Yazyki russkoy kul'tury.
2. Barthes, R. (1957). Mythologies. Éditions du Seuil.
3. The World of Fairy Tales–2. (2017). Toshkent. Tafakkur qanoti.
4. Jung, C. G. (1964). The archetypes and the collective unconscious. Paris.
5. Karimov, S. (2011). The language of folklore and issues of artistic thinking. Toshkent. O'qituvchi.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors we live by. University of Chicago Press.
7. Maslova, V. A. (2001). Linguoculturology. Akademiya.
8. Propp, V. Ya. (1928). Morphology of the folktale. Academia.
9. Vinogradov, V. V. (1959). On the language of fiction. Goslitizdat.
10. von Franz, M.-L. (1992). The interpretation of fairy tales. Paris.
11. Warner, M. (1994). From the beast to the blonde: On fairy tales and their tellers. Farrar, Straus and Giroux.
12. Yo'ldoshev, B. (2008). Literary text and its linguopoetic analysis. Toshkent. Fan.
13. Zipes, J. (1989). Don't bet on the prince: Contemporary feminist fairy tales in North America and England. Routledge.
14. Zipes, J. (1993). The trials and tribulations of Little Red Riding Hood. Routledge.